

QODIROVA FERUZAXON USMANOVNA
PULATOVA DILFUZA AZAMKULOVNA

INKLYUZIV TA'LIM: nazariya va amaliyot



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA

INKLYUZIV TA'LIM:
NAZARIYA VA AMALIYOT

Pedagogika universiteti hamda institutlarining barcha
yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, inklyuziv ta'lim
sharoitida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda ota-onalar
uchun darslik

“Yangi chirchiq book” nashriyoti
Chirchiq - 2022

УЎҚ: 94 (575.1)
КБК 63.5 (Ў)
К-91

Taqrizchilar:

M. Jumayev – Nizomiy nomidagi TDPU professori,
S. Achilova – ChDPU Maxsus pedagogika kafedrası dotsent
v.b., p.f.f.d. (PhD).

Ushbu darslikda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitishning mohiyati, inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda pedagogik-psixologik aspektlari yoritib berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitidashitishida, ko'rishda, aqliy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolarida, autistik sohasida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan davr talabiga mos pedagogik texnologiyalar keltirilgan.

Darslikdan talabalar, o'qituvchilar, maxsus pedagog-tyutorlar, tarbiyachilar, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ota-onalari koreksion va rivojlantirish ishlarida foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-9166-0-9

*«Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas.
Unga hurmat bilan munosabada bo'lish va
munosib hayot kechirish imkonini berish muhim».*

Mariya Sibulskaya

KIRISH

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalari ishirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlaralohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayongamosyurimalakalikadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi¹. Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini

¹Улоғаватон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасининг аниқла имкониятларини оёйица Хорекатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФФ-4947-сонли Фармони.

yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirishyana muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inkluziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda ushbu darslik tayanch manbaa sifatida xizmat qiladi.

I BOB. INKLUZIV TA'LIMNING MOHIYATI VA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN IJTIMOIY AHAMIYATI

1.1. INKLUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zaminida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarni zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga jamoatviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib bormoqda.

Holatlik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuv)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan tadrijiy rivojlanib bormadigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashtirishida

nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2007 yilda «O'zbekistonda inklyuziv ta'lim» loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, loyihada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko'mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi «Ziyo» maxsus zarurati bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O'zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta'lim-tarbiya olishdi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini² chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlari asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim

jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan mulog'otda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablariida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur darslikda inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shuni borki, inklyuziv ta'lim natijati nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oltida tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga jolib ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati sabab uyaltib turishi, kamситilishi, ayrimlari esa oltida haddan tashqari erka o'stirilganligi tufayli qaysarlik, inijlik qilishi kuzatiladi, bunday sharoitda ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkilloshtirishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'quvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini aydinlashtiradi.

²YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta'limga muhtojlarga qaratilgan Dastur – 1994.